

2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



O.X. Xamidov

(OTM rektori)

Ro'yxatga olindi: № 004.
2023 yil 29.08.

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	700000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi	720000-Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishi	60710400-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

BUXORO – 2023

Fan kodi		O'quv yili		Semestr	Kreditlar
METB 3051		2024-2025		3	6
Fan/modul turi			Majburiy		
Fanning nomi					
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar					
Ta'lim tili			O'zbek		
Haftalik dars soatlari			6		
1	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim (soat)
		30	30	30	90
	Jami	180			

2	Fanning mazmuni
	Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar fanining predmeti, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, tarixi, ilmiy asoslari, muhofaza qilinadigan hududlardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni yechishdagi o'rnini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - Talabalarga antropogen faktorning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning maqsad va vazifalari; muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning klassifikatsiyasi; nazorat turlari; muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan foydalanish ko'lami, metodlari; o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish va foydalanish, nazorati; o'simlik va hayvonlardan rasional foydalanish va bashoratlash prinsiplari; boshqarish, uning tiplari, asosiy prinsiplari, uning kompleks holda yondashuvi; ekologik yondashuvi va iqtisodiy yondashuvi hamohangligi, texnologik takomillashuv; muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning huquqiy asoslari; O'zbekistonda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan foydalanish qonunlari; muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan foydalanish borasidagi xalqaro tajribalarni o'rganishni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 1-mavzu. Kirish. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning obyekti, maqsad

va vazifalari hamda ahamiyati
Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning maqsadi va vazifalari, tamoyillari. MQTHlarning tadqiqot uslublari. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning faoliyati tarixi. 2-mavzu. Biologik xilma-xilligini saqlab qolish va muhofaza qilishning geokologik asoslari Biologik xilma-xilligi tushunchasi. Bioxilma-xillikni baholash tamoyillari. Biologik turlarni xilma-xilligi va noyobligini baholash metodlari 3-mavzu. Ekologik karkasni tashkil etishning nazariy-metadologik asoslari Ekologik karkas-muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning takomillashgan tizimi sifatida. Ekologik karkasning tarkibiy tuzilishi va elementlari. Ekologik karkas elementlarining asosiy funksiyalari. 4- mavzu. Muqaddas hudud va obyektlar tabiat yodgorligi sifatida Muqaddas hududlar va obyektlar tushunchasi. Muqaddas hududlarni tadqiq etishning geografik jihatlari. Muqaddas hudud va obyektlarni tanlashning etnoekologik va geografik asoslari. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda sokral hududlarning ahamiyati 5- mavzu. Davlat qo'riqxonlari. Davlat qo'riqxonlariga qo'yiladigan talablar O'zbekiston hududidagi qo'riqxonalar. Qo'riqxonalarning vazifasi Qo'riqxonalar foydalitomonlari. 6-mavzu. Qizilqum davlat qo'riqxonasi. Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi Davlat qo'riqxonasi tushunchasi, ularning geokologik funksiyasi va xususiyatlari. Qo'riqxona va milliy bog'larni tashkil etishning geokologik tamoyillari. Milliy bog'lar: tushunchasi, rejimi va funksiyasi. Milliy bog'larda funksional zonalarining turlari. 7-mavzu. Zomin davlat qo'riqxonasi. Zarafshon davlat qo'riqxonasi Zomin qo'riqxonasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Zomin qo'riqxonasining o'simliklar dunyosi. Zomin qo'riqxonasining hayvonot dunyosi. Zarafshon qo'riqxonasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Zarafshon

qo'riqxonasining o'simliklar dunyosi. Zarafshon qo'riqxonasining hayvonot dunyosi.

8-mavzu. Nurota davlat qo'riqxonasi. Surxon davlat qo'riqxonasi. Hisor davlat qo'riqxonasi

Nurota qo'riqxonasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Nurota qo'riqxonasining o'simliklar dunyosi. Nurota qo'riqxonasining hayvonot dunyosi.

9- mavzu. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardagi ilmiy faoliyat (Oqtog'-Tomdi davlat qo'riqxonasi misolida)

Qo'riqxonalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar, ularning bioxilma-xilligi, olib borilayotgan ilmiy faoliyati.

10-mavzu. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish

O'simliklar dunyosini ahamiyati. O'rmon resurslari ularning qisqarishining salbiy oqibatlari. O'simliklarni himoya qilish choralari. "Qizil kitob" va uning ahamiyati.

11-mavzu. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning qonun va qonun osti hujjatlarda o'z aksini topishi

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar va Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning qonun va qonun osti hujjatlarda o'z aksini topishi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida qonun. «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonun. «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonun. «O'rmon to'g'risida» gi Qonun. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun.

12-mavzu. O'rta Osiyoning alohida muhofaza qilinadigan hududlari

O'rta Osiyo qo'riqxonalari. Milliy bog'lar va buyurtmaxonalar. Zakazniklar, rezervatlar, tabiiy bog'lar.

13-mavzu. O'zbekistondagi muhofaza talab hududlardan foydalanishda

ekologik ta'lim –tarbiyaning roli

O'rta Osiyodagi qo'riqxonalar. Milliy bog'lar va buyurtmaxonalar. Zakazniklar, rezervatlar, tabiiy bog'lar.

14-mavzu. O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik masalalari

Xalqaro ekologik hamkorlik. XEH tamoyillarga asoslanishi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy tizimi barqarorligini ta'minlash

15-mavzu. Tabiat-inson-kelajak

Tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlarga aylantirilishi va uning oqibatlari. Tabiiy landshaftlarni saqlab qolish, antropogen ta'sirlarni yumshatish, insoniyat faoliyatini optimallashtirish masalasi.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanib fan sohasidagi yangiliklar bilan amaliy mashg'ulotlarini mazmunini boyitadilar.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan mavzular:

1-mavzu: Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar haqida umumiy ma'lumot berish.

2- mavzu: Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni tashkil etishning zamonaviy muammolari, yechimlari va istiqbollari

3-mavzu: Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni tashkil etishning zamonaviy muammolari, yechimlari va istiqbollari

4-mavzu: Qizil kitobning biologik xilma-xillikni saqlashdagi o'rni

5-mavzu: Milliy bog'larning asosiy vazifalari

6-mavzu: Biologik-xilma-xillikni saqlashning zaruriyati

7- mavzu: Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ekologik ta'lim va turizm (Buxoro viloyatida joylashgan To'dako'l, Quyimozor suv omborlari va BUKHARA desert OASIS SPA) misolida

8-mavzu: Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ekologik ta'lim va turizm

(Buxoro viloyatida joylashgan To'dako'l, Quyimozor suv omborlari va BUKHARA desert OASIS SPA) misolida

9-mavzu: O'zbekistonning buyurtmaxonalari, tabiat yodgorliklari haqida umumiy ma'lumot berish.

10-mavzu: Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish istiqbollari

11-mavzu: Tabiiy muhofazalangan hududlarda antropogen ta'sirni nazorat qilish

12-mavzu: Alohida muhofaza qilinadigan hududlar va xalqaro hamkorlik

13-mavzu: Mamlakatimizdagi suvliklar va ularning yashash muhiti sifatidagi o'rnini yoritish

14-mavzu: Muhofaza qilinadigan hududlarning geografik joylashish prinsiplari.

15-mavzu: Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning buguni va kelajagi to'g'risida dunyo olimlarining fikrlari

Amaliy mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan mavzular:

1-mavzu: METH to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, belgilangan maqsad va vazifalarni tushuntirish

2-mavzu: Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning toifalari, funksiyasi va klatsifikatsiyasi

3-mavzu: Buxoro shahridagi Ekobog' modelini tayyorlang

4-mavzu: O'zbekiston hududida joylashgan qo'riqxonalar modelini tayyorlang

5-mavzu: Baday-to'qay qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

6-mavzu: Xisor davlat qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

7-mavzu: Zomin tog'-archa qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

8-mavzu: Zarafshon davlat qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

9-mavzu: Kitob davlat geologik qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

10-mavzu: Qizilqum davlat qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

11-mavzu: Nurota davlat qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

12-mavzu: Surxon davlat qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

13-mavzu: Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasini atlasdan foydalanib xaritasini tayyorlang

14-mavzu: Buxoro shahridagi muhofazaga olingan davlat tabiat yodgorliklarini ko'chma mashg'ulot tarzida ko'rib chiqish

15-mavzu: Buxoro viloyati Samoniyar istirohat bog'i misolida ekologik karkas tuzilmasini ko'chma mashg'ulot tarzida ko'rib chiqish

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- masofaviy ta'lim;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Maxsus himoyalangan tabiiy hududlarning toifalari

2. Yevropa milliy bog'lari

3. Osiyo milliy bog'lari

4. Amerika milliy bog'lari

5. Afrika milliy bog'lari

6. O'zbekistonning tabiiy yodgorliklari

7. O'zbekistonning maxsus himoyalangan tabiiy hududlari

	8. Jayron ekomarkazi faoliyati 9. Dunyo buyurtmaxonalari
3	Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: -Antropogen faktorning muhofaza qilinadigan hududlarga ta'siri; Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning maqsadi va vazifalari, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish va foydalanish, nazorati, O'zbekiston respublikasining biologik resurslardan foydalanish qonunlari haqida tasavvur va bilimga ega bulishi; -O'simlik va hayvonot dunyosida rasional foydalanishni rejalashtirish va bashorat qilish prinsiplari boshqarish va uning tiplari, asosiy prinsiplari haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; -O'rmon resurslaridan oqilona foydalanishni rejalashtirish; ekomonitoring usullarini amalda qo'llay olish; biologik resurslardan oqilona foydalanishga doir xulosalar va olingan natijalarni baholash va aniq takliflar berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulot (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

6	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar: 1. Яшенко Р.Б. Заповедники Средней Азии и Казахстана. - Казахстан. 2006 2. Бекназов Р.У. Новиков Ю.В. Охрана природы. - Ташкент, 1995 3. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. - Toshkent. 2005 4. Конвенция о биологическом разнообразии. Третий Национальный доклад Узбекистана. Государственный комитет Республики Узбекистан по охране природы, Академии Наук Республики Узбекистан. - Ташкент, 2006 Qo'shimcha adabiyotlar: 5. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. - Toshkent, 2006 6. Константинов В.М. Охрана природы. -М.: 2002 7. Акимов Т.А., Хаскин В.В. Экология- М.: ЮНИТИ 1998 8. Отабоев Ш., Набиев М. Инсон ва биосфера. - Тошкент, 1995 9. Национальная стратегия и план действий по сохранению биоразнообразия Республики Узбекистан. - Ташкент, 1998 10. Охрана окружающей среды (законы и нормативные документы) Выпуск I. - Ташкент, 2000 Internet manbalari: 11. www.zivonet.uz 12. www.nature.uz 13. www.uznature.uz 14. www.lex.uz 15. www.zoomet.ru 16. www.oak.uz 17. www.vak.ru
---	--

7	Fan dasturi Buxoro davlat universitetining 2023 yil “___” ___dagi ___ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan va tasdiqlangan
8	Fan/modul uchun mas’ul: H.R. Adizova-BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrasi katta o’qituvchi B.N. Doniyorov-BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrasi katta o’qituvchi
9	Taqrizchilar: Jabborova O.I.  Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiy biologiya kafedrasi mudiri. Xayitov Y.Q.  Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi professori